

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA  
KIRUVCHILAR UCHUN**

**SAVOLLAR KITOBI**

ABITURIYENT: \_\_\_\_\_  
F.I.O. Imzo

**ABITURIYENT DIQQATIGA!**

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan boyicha 36 ta savol mavjudligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'i raqami bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

**Savollar kitobida abituriyentning familiyasi, ismi, otasining ismi xato to'ldirilgan yoki to'ldirilmagan va imzosi qo'yilmagan hollarda e'tirozlar ko'rib chiqilmaydi.**

**Kitob tipi: 32**

**FANLAR:**

*Blok 1: Ona tili va adabiyot*

*Blok 2: Biologiya*

*Blok 3: Kimyo*

Savollar kitobi raqami: **1701307**

Toshkent – 2017

## ONA TILI VA ADABIYOT

1. Yasama so'z vazifadosh ko'makchi bo'lib kelgan gapni aniqlang.  
A) *Bobur xastaligi ustiga ko'p ishlab o'zini toliqtirib qo'ygandi.*  
B) *Bubur Agradan Kobulga yuborgan bu maktub Mohimga atalgani sezilib turardi.*  
C) *Bobur tufayli mana shu qorong'ulikni boyniga olib kelmoqda edi.*  
D) *Bobur o'z hayoti haqida bu qadar ochiqchasiga yozgani Xondamirni hayron qoldirdi.*
2. Narsaning holatini ifodalay oladigan ism asosli sodda yasama fe'llar berilgan javobni belgilang.  
A) *bo'shamoq, qotmoq, ko'paymoq*  
B) *suvamoq, hayajonlanmoq, ikkilanmoq*  
C) *varaqlamoq, bezovtalanmoq, shodlanmoq*  
D) *yaltiramoq, sarg'aymoq, bo'shamoq*
3. Berilgan she'riy parchadagi sodda yasama so'zlardan nechtasining asosi shakldoshlik xususiyatiga ega?  
Bir kun ko'zlarimdan qochdi uyqular,  
Bir kun yuragini ochdi tuyg'ular. . .  
Men seni esladim entikib, yonib. . .  
A) 4 B) 1 C) 2 D) 3
4. **Bodroq, yo'q** so'zlariga quyidagi qo'shimchalarni qo'shilganida fonetik hodisa kuzatiladi?  
A) *faqat jo'nalish kelishigi qo'shimchasi*  
B) *jo'nalish kelishigi va egalik qo'shimchalari*  
C) *faqat egalik qo'shimchalari*  
D) *bodroq so'ziga egalik va jo'nalish kelishigi, yo'q so'ziga egalik qo'shimchalari*
5. Qaysi gapda qatnashgan o'zaro shakldosh qo'shimchalar urg'u olish yoki olmasligiga ko'ra farq qiladi?  
1. Kechgi taom payti tog'da ko'chki bo'lganligi haqida xabar berildi. 2. Bu yigitcha o'zini oqlashga tirnoqcha nasos topolmadi.  
3. Qat – qatgina qatlama, aqling bo'lsa, tashlama. 4. Qadrdon kundaligim, senga hech bir so'z yozmaganimga ancha bo'ldi, mana, bugun qalamdon ichidagi qalamimga yana qo'l uzatdim.  
A) 1, 2, 3, 4 B) 2, 3, 4 C) 2, 3 D) 1, 4
6. Hol ergash gapli qo'shma gap haqidagi noto'g'ri hukmni aniqlang.  
A) *Har doim bosh gap oldin, ergash gap keyin keladi.*  
B) *Hol ergash gapli qo'shma gaplar sabab va maqsad ma'nosini anglatganda ergashtiruvchi bog'lovchilar va deb so'zi yordamida bog'lanishi mumkin.*  
C) *Hol ergash gapli qo'shma gap nisbiy so'zlar vositasida bog'lana oladi.*  
D) *Hol ergash gapli qo'shma gap qismlari bog'lovchi vazifasidagi so'z bilan bog'lana oladi.*
7. Yam-yashil vohalarga,  
Badiiy lavhalarga,  
She'riy sarlavhalarga,  
Boy ekansan, Farg'ona.  
Ushbu parcha haqidagi to'g'ri hukmni toping.  
A) *egasi umumlashgan sodda gap*  
B) *murakkab fe'l kesim ishtirok etgan sodda gap*  
C) *vositali to'ldiruvchi uyushgan sodda gap*  
D) *to'rt o'rinda sifatlovchi aniqlovchi ishtirok etgan*
8. Qaysi gapda paronim bilan bog'liq xatolikka yo'l qo'yilgan?  
A) *U sandiqdagi javohirlardan qisimiga sig'gancha oldi.*  
B) *Unga ekishga yaroqli yerlarning hisobini olish topshirilgan edi.*  
C) *Hirotning a'yonlari yangi podshoga yaxshi ko'rinish ilinjida edilar.*  
D) *Dushman turli xiyala bilan jangchilarning tinkasini quritmoqchi edi.*
9. Berilgan so'zlardan qaysilarining turlangan shakllari ham o'zaro omonim bo'la oladi?  
1) soch, 2) shox, 3) sir, 4) tovon, 5) es 6) bot  
A) 4, 5, 6 B) 2, 3, 4 C) 1, 3, 4, 5 D) 1, 2, 3, 6
10. Quyidagi gapda ma'no ko'chishining qaysi tur(lar)i qatnashgan?  
Aytmaganning dasturxoniga borib qadrimni tushirmoqchi emasman.  
A) *faqat metafora*  
B) *metonimiya, metafora*  
C) *sinekdoxa, metafora*  
D) *vazifadoshlik, metonimiya*
11. Berilgan gapda nechta yasama ot ishtirok etgan?  
Asarning tub mohiyatida markazlashgan davlat barpo qilish, mustahkamlash, turli xon va beklarni birlikka chaqirish, adolatli va oqilona siyosatni amalga oshirish, yashash bilan bog'liq g'oyalar badiiy tarzda bir qomusiy dastur sifatida ilgari surilgan.  
A) 3ta B) 2ta C) 1ta D) 4ta
12. Olti oykim, she'r yozmayman, yuragim zoda, Olti oykim, o'zgalarga tilayman omad. Olti oykim, do'stlarim ham pana-panada Iste'dodim so'nganidan qilar karomat.  
Berilgan she'riy parchada qaysi kelishik qo'shimchasi ko'makchi bilan ma'nodoshlik hosil qilishi mumkin?  
A) *qaratqich kelishigi qo'shimchasi*  
B) *chiqish va o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi*  
C) *chiqish kelishigi qo'shimchasi*  
D) *o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi*
13. Ravishning bir ma'no turiga oid so'zlar berilgan javobni aniqlang.  
A) *oldinda, olg'a, bir lahzada*  
B) *hamisha, zo'rg'a, kecha-kunduz*  
C) *qasddan, noiloj, jinday*  
D) *birdan, yayov, tasodifan*
14. Qaysi gapda fe'lning buyruq-istak mayliga oid munosabat shaklining badiiy uslubga xos ko'rinishi qo'llangan?  
A) *Men kimga suyangayman, birinchi muhabbatim faqat eslab yongayman, birinchi muhabbatim.*  
B) *Qora ko'zum, kel-u, mardumliq emdi fan qilg'il, Ko'zum qarosida mardum kabi vatan qilg'il.*  
C) *Ko'rgali husnungni zor-u muftalo bo'ldum sanga, Ne balolig' kun edikim, oshno bo'ldum sanga.*  
D) *Yaxshini maqtasang - yarashur, Yomoni maqtasang - adashur.*
15. Berilgan gap qo'shma gapning qaysi turiga kiradi?  
Ayolning kayfiyati yaxshi bo'lsa, ayol hayotdan rozi bo'lsa, oila hayotdan rozi bo'ladi  
A) *bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap*  
B) *aralash murakkab qo'shma gap*  
C) *bog'langan qo'shma gap*  
D) *bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap*
16. Qaysi javobdagi juftlik o'zaro bir umumiy ma'noni ifodalay olmaydi?  
A) *ganch-boylik* B) *gangimoq-esankiramoq* C) *norg'ul-barzangi* D) *tanti-mard*
17. Tinish belgilarini qo'llash bilan bog'liq xatolik mavjud bo'lmagan gapni aniqlang.  
A) *Soraxon shuncha kundan beri yetolmagan niyatga — Roziyani avvalgiday go'zal, shod ko'rish niyatiga — Sattor bir lahzada yetdi.*  
B) *Me'morning avvalo raiyat, qolaversa saltanat oldidagi, mavqeyi, Xuroson-u Movarounnahrtdagi shuhrati unga qarshi keskin chora ko'rishga yo'l bermas edi.*  
C) *Sekin unga yaqin bordim: bu manzara ham bizga yaqin-da qadrdon!*  
D) *U otasi Muzaffar Farmonovning batamom aksi: dadasi yum-yumaloq, baqaloq bo'lsa bu xushqad, xushsurat.*
18. Quyidagi gaplarning qaysi birida hol va kesim uyushib kelgan?  
A) *Inim, dunyoda kitob o'qimoqdan, tafakkurdan, she'r aytimoqdan zavqbxash mashg'ulot yo'qdir.*  
B) *Shu yerga kelganda, mingboshining qovog'i solina boshlagan edi, qisiq ko'zlarining tez-tez yumilib pirpirayotganday bo'lganini Miryoqub ham payqadi.*  
C) *U hamma vaqtdagidek did va farosat bilan kiyingan, avvalgidek chiroyli, xushmuomala edi.*  
D) *Shoir o'z hayotida yaratgan ilmiy, madaniy muassasalarning yashashini, xayr-u ehsanlarning o'zidan keyin ham kattaroq miqyosda davom etishini orzu qildi.*
19. Kim bo'lsa hasadchi, yuragi qaro,  
Ko'rmas yaxshilarga yaxshilik ravo.  
Ushbu parchada qanday munosabatli so'z birikma(lar)ida tobe qism ham, hokim qism ham yasama so'zlar bilan ifodalangan?  
A) *boshqaruv* B) *bitishuv* C) *boshqaruv va bitishuv* D) *moslashuv va boshqaruv*
20. Agar bu O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixini ulug'lamoqchi bo'lsak, avvalambor, buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak.

- Ushbu gapda faqat hokim qismi yasama so'zdan iborat bo'lgan so'z birikmalari sonini aniqlang.  
A) 5 B) 4 C) 3 D) 2
21. Quyidagi she'riy parchada ishtirok etgan yasama otlarning sintaktik vazifasi haqidagi to'g'ri hukmni belgilang.  
Yoshlik - gul-u gul'uncha ekan, Bu gul olam turguncha ekan, Yoshlik - behad tushuncha ekan, Payoni yo'q g'aruncha ekan.  
A) 2 o'rinda ega, 2 o'rinda kesim  
B) 2 o'rinda ega, 1 o'rinda kesim  
C) 3 o'rinda ega, 2 o'rinda kesim  
D) 3 o'rinda ega, 3 o'rinda kesim
22. Yetakchi morfemasi ot bo'lgan yasama so'z qatnashgan gapni aniqlang.  
A) *Tani sog'lik - tuman boylik.*  
B) *Bilimi zo'r mingni yiqar.*  
C) *Odami el ko'kartirdi.*  
D) *Aybsiz do'st axtargan do'stsiz qolar.*
23. Yaxshi bo'lg'in, hatto dushmaning oson, Seni deymolmasin yaramas, yomon. Tanburning ovozi soz chiqib tursa, Qulog'in buramas sozchi hech qachon. She'riy parchadagi ko'makchi morfemalar haqida bildirilgan to'g'ri fikrlarni toping.  
1) 2 ta qaratqich, 2 ta tushum kelishigi qo'shimchasi qo'llangan; 2) 2 ta buyruq-istak mayli qo'shimchasi mavjud; 3) 3 ta egalik qo'shimchasi qo'llangan; 4) 3 ta so'z yasovchi qo'shimcha qo'llangan.  
A) 3, 4 B) 1, 2 C) 1, 4 D) 2, 3
24. Qaysi gapda faqat bitta tub so'z mavjud?  
A) *Rahmsizlik hamisha o'zlik, qo'rqoqlik, vahimada kelib chiqadi.*  
B) *Xatoliklar nisbati o'zgarishi umumiy ko'rsatkichga ta'sir qilmaydi.*  
C) *Millionlab insonlar iymon sari yuz tutdi.*  
D) *Zaruratsiz, ichki dardsiz, ehtirossiz yozilgan asar o'likdir*
25. Sergey Yesenin qaysi she'ri mazmunida Eron bilan Rossiyada ayollarga munosabat masalasidagi farqlar aytib o'tiladi?  
A) *"Dog'lar ketmish majruh ko'ngildan..."*  
B) *"Bu dunyoda men bir yo'lovchi..."*  
C) *"Xurosonda bir darboza bor..."*  
D) *"Singlimga xat"*
26. Ogahiy o'zbek tiliga tarjima qilgan "Haft paykar" asarining muallifini aniqlang.  
A) Hiloliy B) Nizomiy C) Koshifiy D) Vosifiy
27. "Kuntug'mish" dostoni haqida berilgan qaysi ma'lumot noto'g'ri?  
A) *Qoraxon podsho necha yillardan beri o'zining o'rniga qushbegisini qo'yib, Kuntug'mishning o'tiga kuyib, tagzaminga kirib, toat-ibodatga mashg'ul bo'lib yotar edi.*  
B) *El Xolbeka va Xolmo'minning sut emganini bilmas edi va Xolbeka Xolmo'minning baxshandasi deb aytib yurishar edi.*  
C) *Odamlar bo'ri olib ketgan bolaning ismini Mohiboy, baliq olib ketgan bolaning otini Gurkiboy deb atashdi.*  
D) *Kuntug'mish bir kossa suv va non evaziga ajdahoni o'ldiradi.*
28. "...Bog'ni kesishdi. Dilim o'rtanganin Aytsin ho'l bolish, Bog'ni kesishdi - yu, Bag'im ezishdi". Qaysi shoir o'z she'rida lirik qahramon sifatida bog'ni kesishganda yostiqni ho'llab yig'aganlarini yodga oladi?  
A) *Usmon Nosir ("Bolalik")*  
B) *Xayriddin Saloh ("Yer va ter")*  
C) *Sergey Yesenin ("Singlimga xat")*  
D) *Mirtemir ("Qishlog'im")*
29. Qaysi ijodkor adabiyotni "toza ma'rifat suvi", "buloq suvi" deb tariflaydi?  
A) *A. Oripov* B) *Avloniy* C) *Cho'lpon* D) *O'. Hoshimov*
30. "Ularning o'zlari esa, quyundek tuproqni havoga to'zitadilar... Tog' jussasini oyoq osti qilmoq - odatlari; dala-dashtlardagi zarralarni havoga sovurmoq - bularning salobatlari." Alisher Navoiyning "Mahub ul-qulub" asarining nasriy bayonida kimlar haqida ana shunday fikrlar aytilgan?  
A) *tamagir kishilar haqida*  
B) *yolg'onchilar haqida*  
C) *isrofgar kishilar haqida*  
D) *yengiltak kishilar haqida*
31. Qaysi dramatik asarda "Bu kecha tushimda payg'ambarni ko'rdim, sizni so'rab yubordilar",- deya xushomadgo'yligi evaziga chopon kiygan obraz uchraydi?  
A) *"Mehrobdan chayon"* B) *"Advokatlik osonmi?"* C) *"Abulfayzxon"*  
D) *"Sohibqiron"*
32. "Sohibqiron" dramasi Amir Temur quyidagi so'zlarni kimga qarata aytadi? "Xuddi shundoq shakldagi paykonlar bilan Sijistonda yog'iy meni yaralagandi. Bir oyog'im ham bir qo'lim hanuz nogiron. Ajab holkim o'shanda sen malham qo'yganding, Eslaysanmi o'sha kunni?"  
A) *Amir Husaynga* B) *Uljoy Turkonga* C) *Barlos Bahodirga* D) *Kayxisravga*
33. Sher Muhammad Munisning "Shirinsuxan Laylivashim vaqtiki qohir bo'lg'usi" deb boshlanadigan she'ri kimning g'azaliga bog'langan muxammas sanaladi?  
A) *Boburning* B) *Alisher Navoiyning* C) *Mashrabning* D) *Fuzuliyning*
34. "Aylar gazet" radifli g'azal muallifi kim?  
A) *Hamza* B) *Cho'lpon* C) *Avaz O'tar* D) *So'fizoda*
35. Ogahiy tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan qaysi asar tarixiy hisoblanadi?  
A) *"Axloqy Muhsiniy" (Koshifiy)*  
B) *"Ravz us-safo" (Mirxond)*  
C) *"Badoe ul-vaqoe" (Vosifiy)*  
D) *"Shoh va gado" (Hiloliy)*
36. Qaysi baytlarda qisqa radif muqayyad qofiyadan keyin kelgan?  
1. Shifoyi vasl qadrin hajr ila o'landan so'r,  
Zuloli zavq shavqin tashmayi diydor o'landan so'r.  
2. Har gadokim, bo'ryoyi faqr erur kisvat anga,  
Saltanat zarbaftidin hpjat emas xil'at anga.  
3. Ko'rgoli la'ling aqiqin ko'nglum ul yon tortadur,  
Bu yamon andishaliqni go'iy qon tortadur.  
4. Ey orazi shams - u qamarim, netti, ne bo'ladi?  
Vey tishlari dur - u gavharim, netti, ne bo'ldi?  
A) 2, 4 B) 3, 4 C) 1, 2, 3 D) 2, 3

## BIOLOGIYA

37. Xushboy hidli no'xatning oq gultojbargli navlarini o'zaro chatishtirilganda birinchi avlodning guli qizil rangda (AaBb) bo'ladi. F<sub>2</sub>da necha xil fenotipik (a) va genotipik (b) sinflar hosil bo'ladi?  
A) a-9, b-16  
B) a-2, b-9  
C) a-4, b-9  
D) a-2, b-16
38. Makkajo'xorida barglarning burishganligi va poyaning past bo'lishi retsessiv belgilar hisoblanib, bitta xromosomada joylashgan. Barglari silliq va normal uzunlikdagi o'simlik barglari burishgan past bo'lyli o'simlik bilan chatishtirilib 1200 ta o'simlik olindi. Shundan 216 ta organizm ota-onaning ayrim belgilarini o'zida mujassamlashtirilgan. Retsessiv belgiga ega bo'lgan organizmlar sonini aniqlang.  
A) 492 B) 984 C) 600 D) 108
39. Itning koker zoti junining qora rangi dominant noallel A va B genlarga bog'liq. Faqat A genining dominant holatda bo'lishi junning malla, B genining dominant holatda bo'lishi junning jigarrang, dominant genlarning uchramasligi junning oq rangda bo'lishini ta'minlansa, digeterozigota genotipli organizmlar o'zaro chatishtirilgandan olingan avlodning necha foizini genotip jihatdan ota-onadan farq qiluvchi organizmlar tashkil qiladi.  
A) 75 B) 25 C) 37,5 D) 31,25
40. DNK bo'laki genomning ma'lum joyidan chiqib ketishi (a) va kirishi (b) qanday nomlanadi?  
A) *a-inversiya; b-ekssiziya*  
B) *a-deletsiya; b-duplikatsiya*  
C) *a-insersiya; b-ekssiziya*

- D) *a-ekssiziya; b-insersiya*
41. O'simlik sitoplazmasida achish jarayonida 240 kJ energiya issiqlik sifatida to'plangan bo'lsa, mitoxondriyada qancha energiya (kJ) issiqlik sifatida tarqalgan (a) va shu vaqt davomida xloroplastda hosil bo'lgan ATF ga qancha energiya (kJ) bog'langan (b)?  
A) *a-2560; b-91200*  
B) *a-4640; b-4320*  
C) *a-2320; b-86400*  
D) *a-3480; b-3240*
42. Qora kalamushning zigotasi 4 marta meridional bo'lingandan so'ng uning jami blastamerlaridagi xromosomalar soni 2432 tani tashkil etgan bo'lsa, jami hujayralardagi autosomalar sonini aniqlang.  
A) *1216* B) *1280* C) *2560* D) *2304*
43. Sistematik birliklar ketma-ketligi to'g'ri berilgan javobni aniqlang.  
A) *nutriya- suvsarsimonlar oilasi- yirtqich sutemizuvchilar turkumi- sutemizuvchilar sinfi- umurtqalilar kenja tipi- xordalilar tipi*  
B) *korsak- suvsarsimonlar oilasi – yirtqich sutemizuvchilar turkumi – yo'ldoshlilar kenja sinfi – sutemizuvchilar sinfi – umurtqalilar tipi*  
C) *ondatra – suvsarsimonlar oilasi- yirtqich sutemizuvchilar turkumi – sutemizuvchilar sinfi – umurtqalilar kenja tipi – xordalilar tipi*  
D) *norka - suvsarsimonlar oilasi – yirtqich sutemizuvchilar turkumi – sutemizuvchilar sinfi – umurtqalilar kenja tipi – xordalilar tipi*
44. Lansetnik haqidagi noto'g'ri ma'lumotni aniqlang.  
A) *bosh skeletsizlar kenja tipiga mansub*  
B) *karbonat anhidrid bilan to'yingan qon qorin aortasi orqali oldinga oqadi*  
C) *ayirish sistemasi va muskullari tuzulishi bilan xordalilarga o'xshaydi*  
D) *terisi ostidagi yorug'lik sezuvchi hujayralar ko'rish vazifasini bajaradi*
45. Paleozoy (a) va mezozoy (b) eralariga xos biologik progresslarni aniqlang.  
1) qushlarda to'rt kamerali yurak; 2) qirquqoqsimonlarda urug';  
3) hasharotlarda qanot; 4) stegosefallarda besh barmoqli oyoqlar;  
5) sutemizuvchilarda jun qoplami; 6) sudralib yuruvchilarda qalin po'choq bilan qoplangan tuxum  
A) *a-3,4; b-1,2* B) *a-2,6; b-1,5* C) *a-1,4; b-5,6* D) *a-1,3; b-2,5*
46. Biogen migratsiyaning ikkinchi turiga mos keluvchi jarayonlarni aniqlang.  
1) tugunak bakteriyalar tomonidan azotning o'zlashtirilishi; 2) dukkakli o'simliklarda fotosintezning sodir bo'lishi; 3) laminariyada yodning to'planishi; 4) foraminiferalardan ohaktosh konlarining hosil bo'lishi; 5) xrokokkning fotosintez qilishi; 6) ulvada organik moddalar to'planishi  
A) *1,4,5* B) *2,3,6* C) *1,3,5* D) *2,4,6*
47. Abiotik omillarning ta'siri to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.  
a) namlik; b) topografik;  
1) odamlarda gipoksiya belgilarining paydo bo'lishi; 2) terida melanin pigmentining hosil bo'lishi; 3) hasharotlarda nafas teshiklarining klapanlar bilan bekilishi; 4) ko'pchilik cho'lda yashaydigan hayvonlarning tunda faol bo'lishi; 5) tog'larda yashovchi odamlar qonida eritrotsitlarning ko'p bo'lishi  
A) *a-3,4; b-1,5* B) *a-2,5; b-3,4* C) *a-2,4; b-3,5* D) *a-1,5; b-3,4*
48. Kumulyativ polimeriya epistaz irsiylanishdan farq qilib ...  
1) allel bo'lmagan genlarning o'zaro ta'siri hisoblanadi;  
2) digeterozigota duragaylarning avlodida 5 xil fenotipik sinf hosil bo'ladi;  
3) belgining rivojlanishida ikkita gen qatnashib, ulardan biri asosiy gen, ikkinchisi to'ldiruvchi hisoblanadi; 4) belgining rivojlanishi dominant genlar soniga bog'liq bo'ladi; 5) bir belgining rivojlanishi bir necha gen nazoratida bo'ladi;  
A) *3,4* B) *2,4* C) *1,2* D) *4,5*
49. Bosh miyaning stvol qismida (a) va orqa miyada (b) joylashgan vegetativ nerv sistemasi markazlarining funksiyalarini aniqlang.  
1) yurakning minutlik sistolik hajmini oshiradi; 2) o'pkalar ventilatsiyasini kuchaytiradi; 3) ko'z qorachig'ini kengaytiradi; 4) me'da shirasi ishlab chiqarilishini kuchaytiradi; 5) siydik pufagi muskullarini bo'shashtiradi; 6) siydik pufagi muskullarini qisqartiradi  
A) *a-4; b-1,2* B) *a-1; b-3,6* C) *a-2; b-4,5* D) *a-5; b-2,4*
50. Odam yuragining chap bo'lmachasi diastola holatida bo'lgan vaqtda...  
A) *ikki tavaqali yopiq bo'ladi; qorincha diastola holatida bo'ladi*  
B) *yarimoysimon klapan yopiq bo'ladi; diastolik bosim kuzatiladi*  
C) *ikki tavaqali klapan yopiq bo'ladi; sistolik bosim kuzatiladi*  
D) *qorincha sistola holatida bo'ladi; yarimoysimon klapan yopiq bo'ladi*
51. Odamdagi o'mrov osti muskulining bo'yinning teri osti muskulidan farqini toping.  
1) vegetativ nerv sistemasi orqali boshqariladi; 2) joylashuv ko'ra to'sh-o'mrov so'rg'ichsmon muskul bilan bir guruhga kiradi; 3) joylashuviga ko'ra diafragma muskuli bilan bir guruhga kiradi; 4) gavdaning ko'krak muskuli hisoblanadi; 5) suyakka birikadi; 6) boshning harakatini ta'minlaydi; 7) qo'lning harakatida ishtirok etadi  
A) *1,4,5* B) *1,5* C) *2,6* D) *3,4,7*
52. Odamning bosh miyasiga xos bo'lmagan ma'lumotni aniqlang.  
A) *Bosh miya katta yarimsharlarining sezish zonasi hujayralari sezgi organlaridan kelayotgan impulslarni qabul qiluvchi oliy nerv markaz hisoblanadi*  
B) *Bosh miyaning stvol qismidagi nerv hujayralari shartsiz reflekslarning nerv markazi hisoblanadi*  
C) *Bosh miya shikastlanganda qo'l-oyoq tonusi pasayib, falajlangan oyoq harakatsiz osilib qoladi*  
D) *Uzunchoq miyadan chiquvchi adashgan nerv tolas parasimpatik nerv sistemasining bir qismi bo'lib, qorin bo'shlig'ining yuqori qismida joylashgan organlar ishini boshqaradi*
53. Sezgi analizatorlari haqidagi noto'g'ri fikrni aniqlang.  
A) *Terining derma qavatida sovuqni va siypalashni sezuvchi retseptorlar issiqni va og'riqni sezuvchi retseptorlarga nisbatan chuqurroq joylashgan.*  
B) *Gipermetropiya keksalarda ko'z gavhari do'ngligining ortib ketishi tufayli yuzaga keladi.*  
C) *Quloqning suyak labirinti bilan parda labirinti orasida perilimfa, parda labirinti ichida endolimfa suyuqligi bo'ladi.*  
D) *Harakat analizatorining oliy nerv markazi bosh miya katta yarimsharlari po'stlog'ining orqa markaziy egatida joylashgan.*
54. Lichinkasida kipriklari bor organizmlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.  
1) jigar qurti; 2) exinakok; 3) gidra; 4) nereida; 5) oq planariya; 6) dengiz o'troq ko'p tukli chugalchangi; 7) yong'ir chugalchangi  
A) *1,4* B) *5,7* C) *2,3* D) *3,6*
55. Daryo qisqichbaqasi organlari ularning soni bilan juftlang.  
a) 10ta; b) 8 ta; c) 6ta; d) 4ta; e) 2ta  
1) murakkab ko'zlari; 2) dum suzgichi; 3) pastki jag'lari; 4) haqiqiy yurish oyoqlari; 5) qisqichlari; 6) ikki shoxli qorinoyoqlari; 7) mo'ylovlari; 8) jag'oyoqlari; 9) yuqori jag'lari  
A) *a-6; b-4; c-8; d-3,7,9; e-1,2,5*  
B) *a-6; b-4; c-8; d-2,3,7; e-1,5,9*  
C) *a-6; b-4; c-8; d-2,7,9; e-1,3,5*  
D) *a-6; b-4; c-8; d-3,5,9; e-1,2,7*
56. Bosh skeletsizlarning bosh skeletlilardan farqini aniqlang.  
1) nerv sistemasi nerv nayidan iborat; 2) ichki skelet mavjud emas; 3) bosh va orqa miya markaziy nerv sistemasini hosil qiladi; 4) umurtqa pog'onasi rivojlanmagan; 5) qon aylanish doirasi yopiq; 6) skeleti suyak va tog'aydan iborat  
A) *1,4* B) *3,5,6* C) *2,4* D) *1,2,5*
57. Leyshmaniya va sil batsillasi uchun umumiy bo'lgan xususiyatlarni aniqlang.  
A) *Eukariot organizm, irsiy axboroti sitoplazmadagi halqasimon DNKda joylashgan.*  
B) *Bir hujayrali organizm, hujayra qobig'i xitindan iborat.*  
C) *Yadrosi ikki qavat membrana bilan o'ralgan, reduplikatsiya jarayoni sitoplazmada kechadi.*  
D) *Membranasini ikki qator lipid va oqsil molekularidan iborat, ribosomasi sitoplazmada translyatsiyada qatnashadi.*
58. Yirtqich umurtqasiz (a) va o'txo'r umurtqali (b) hayvonlarni aniqlang.  
1) malla shomshapalak; 2) zlatka; 3) falanga; 4) tipratikan; 5) aureliya; 6) tillako'z; 7) bizon; 8) qaldirg'och; 9) hasva qandalasi; 10) karkidon  
A) *a-3, 9; b-4, 10*  
B) *a-5, 6; b-7, 10*  
C) *a-3, 5; b-1, 8*  
D) *a-2, 6; b-4, 8*
59. Geterotrof oziqlanish xususiyatiga ega prokariot (a) va eukariot (b) organizmlarni aniqlang.  
1) ossillatoriya; 2) temir bakteriyalari; 3) pichan bakteriyasi; 4) shumg'iya; 5) rafleziya; 6) kalina; 7) midiya; 8) giatsint; 9) parpi  
A) *a-1,2; b-5,6,7*  
B) *a-2,3; b-6,7,8*

- C) a-2,3; b-4,5,6  
D) a-3; b-6,8,9
60. Xloroplastlarga ega bo'lmagan eukariot organizmlarga zarar keltiruvchi eukariot organizmlarni aniqlang.  
1) qoqshol qo'zg'atuvchisi; 2) nozema; 3) vertitsill; 4) mikrozo qo'zg'atuvchisi; 5) leishmaniya; 6) zang zamburug'i; 7) tripanosoma  
A) 2,7 B) 3,6 C) 1,5 D) 1,4
61. Qaysi jarayonlar meyoza uchun xos emas?  
1) ketma-ket sodir bo'ladigan ikkita bo'linish jarayoni; 2) to'rtta bir xil irsiy axborotga ega hujayralarning hosil bo'lishi; 3) gomologik xromosomalarning ajralib har xil hujayralarga tarqalishi; 4) gaploid to'plamli mikrosporaning bo'linishi; 5) birinchi bo'linishdan avval interfaza bosqichining bo'lmashligi; 6) xromatidalar tetradasining hosil bo'lishi  
A) 1,6 B) 2,4 C) 3,4 D) 3,5
62. Bir-biriga yaqin turlardan tashkil topgan sistemali birlikka mansub toza liniyalarni aniqlang.  
1) jaydari g'o'zasi; 2) Meksika g'o'zasi; 3) kanop; 4) Misr g'o'zasi; 5) "Yulduz"; 6) "Buxoro-9"; 7) "Omad"; 8) "Toshkent-1"; 9) bo'ritaroq; 10) "Sangzor"  
A) 5,6,7 B) 1,2,4 C) 7,8,10 D) 1,3,9
63. BamHI restriktazasi GGATCC nukleotidlar ketma-ketligini tanib, GG nukleotidlari orasidagi bog'larni kesadi. Maxsus sharoitda 134,3 nm uzunlikdagi DNK molekulasi BamHI restriktazasi orqali A,B,C,D,E bo'laklarga bo'lindi. Hosil bo'lgan barcha DNK bo'laklaridagi jami vodorod bog'lar soni dastlabki DNK molekuladagi vodorod bog'lar sonidan 4% ga kam. Agar nukleotidlar orasidagi masofa 0,34 nm ekanligi ma'lum bo'lsa, dastlabki DNK molekulasi tarkibidagi nechta vodorod bog'lari A va T nukleotidlari orasida joylashgan?  
A) 480 B) 354 C) 370 D) 320
64. Gullari qiyshiq, barglari murakkab tuzilgan o'simliklarni aniqlang.  
1) o'tloq sebgasi; 2) yantoq; 3) yeryong'oq; 4) beda; 5) burchoq; 6) partenosis  
A) 1,3,4,5  
B) 2,4,5,6  
C) 1,2,3,6  
D) 2,3,4,6
65. Nastarin qaysi jihatlari bilan tokka o'xshaydi?  
1) urug'lanishdan so'ng meva hosil qilishi; 2) gullarning qiyshiqligi; 3) ro'vak to'pgul hosil qilishi; 4) barglarining novdada joylashuvi; 5) hayotiy shakli; 6) gulpozasining shoxlanishi  
A) 1,3 B) 2,5 C) 4,6 D) 4,5
66. Ko'p urug'li quruq (a) va bir urug'li ho'l (b) meva hosil qiluvchi o'simliklarni aniqlang.  
1) g'o'zasi; 2) javdar; 3) gilos; 4) nok; 5) shaftoli; 6) olxo'ri; 7) loviya; 8) lola  
A) a-1,2; b-3,6  
B) a-8; b-3,5  
C) a-7; b-4,8  
D) a-2,7; b-5,6
67. Bo'yadaron haqidagi noto'g'ri ma'lumotni aniqlang.  
A) moychechakdoshlar oilasiga kiradi  
B) to'pguli o'rama bargchalar bilan qoplangan  
C) shuvoq turkumi vakili  
D) to'pguli asosan naychasimon gultajibarglardan tashkil topgan
68. Spirogira (I) va ossillatoriya (II) uchun xos bo'lgan belgilarni toping.  
1) hujayra markazi xujayra bo'linishida ishtirok etadi; 2) tarkibida xlorofill pigmenti mavjud; 3) erkin azotni o'zlashtiradi; 4) irsiy material yadroda joylashgan; 5) donador endoplazmatik to'ra oqsillar sintezlanadi; 6) mitoxondriyada kislorodli oksidlanish sodir bo'lad  
A) I-3,6; II-4,5 B) I-1,4; II-5,6 C) I-3,5; II-2,4 D) I-3,6; II-2,4
69. Funariyada sporadan rivojlanuvchi bo'g'ida qanday qismlar hosil bo'ladi?  
1) yashil ipcha; 2) kurtakcha; 3) poya; 4) barg; 5) arxegoniya; 6) sporangiyband; 7) anteridiy; 8) sporalari; 9) rizoid; 10) sporangiy  
A) 1,2,9 B) 5,7,8 C) 6,8,10 D) 3,4,10
70. Organizmlarning qaysi sistematiq guruhlari aromorfozlar natijasida paydo bo'lgan?  
1) to'garak chuvalchanglar; 2) qisqichbaqasimonlar; 3) ayiqsimonlar; 4) o'rgimchaklar; 5) qo'lqanohtilar; 6) hasva qandalasi; 7) o'rgimchaksimonlar;
- 8) terili toshbaqa  
A) 1,2,7 B) 1,3,4 C) 3,5,8 D) 3,6,7
71. Bitta biogeografik viloyatda tarqalgan hayvonlarni belgilang.  
A) lattachi baliq, lemur, o'rdakburun, kapachi qush, yexidna, kolibri, emu, tustovuq  
B) kabarga, los, chittak, ot, bizon, bo'ri, vixuxol, qunduz, tovus, zubr, maral, muskusi qo'y  
C) jirafa, agama, to'ti, echkamar, nosorog, zebra, malla revun, zubr, martishka, begemot  
D) antilopa, tapir, fil, bug'u, qirg'ovul, tovus, orangutan, nosorog, timsoh, gibbon
72. Hind fili va Afrika filining (a), zubr va bizonning (b) kelib chiqishi qanday jarayonlar natijasi hisoblanadi?  
A) a-simpatrik tur paydo bo'lish, b-simpatrik tur paydo bo'lish  
B) a-allopatrik tur paydo bo'lish, b-simpatrik tur paydo bo'lish  
C) a-simpatrik tur paydo bo'lish, b-allopatrik tur paydo bo'lish  
D) a-allopatrik tur paydo bo'lish, b-allopatrik tur paydo bo'lish

### KIMYO

73. Berilgan kompleks birikmalardan kation kompleksni tanlang.  
A)  $[Co(NH_3)_3(NO_2)_3]$   
B)  $Ag(NH_3)_2Cl$   
C)  $K_4[Fe(CN)_6]$   
D)  $(AlOH)_3(PO_4)_2$
74. Fenol molekulasi tarkibidagi uglerod atomlarining oksidlanish darajasi yig'indisini toping.  
A) -6 B) -5 C) -4 D) -2
75. Quyidagi berilganlardan faqat oksidlovchilarni ajrating.  
1)  $NaMnO_4$ ; 2)  $H_2SO_4$ ; 3)  $H_2S$ ; 4)  $CrO_3$ ; 5)  $NH_3$ ; 6)  $HClO_4$   
A) 1,2,3 B) 1,2,4,6 C) 4,5,6 D) 1,2,5
76. DNK qo'sh spirali tarkibidagi nukleotidlarda 9600 ta uglerod atomi bor bo'lsa, adenin va timin nukleotidlar yig'indisini aniqlang. (nukleotidlarning 20% ini guanin tashkil etadi)  
A) 1000 B) 1200 C) 1300 D) 800
77. Qaysi aminokislota qizdirilganda akril kislota hosil boladi?  
A)  $\beta$ -aminopropan kislota  
B)  $\beta$ -aminobutan kislota  
C) a-aminopentan kislota  
D) a-aminobutan kislota
78. 15,9 g akrilonitril gidrolizlanishidan necha gramm akril kislota hosil bo'ladi? ( $\eta=0,75$ )  
A) 43,2 B) 16,2 C) 21,6 D) 28,8
79. Propanol, fenol va sirka kislotadan iborat aralashma Na metali bilan ishlanganda 8,96 litr (n.sh.) gaz ajraldi. Boshlang'ich aralashma 200 g NaOH eritmasi (NaOH ning foiz konsentratsiyasi suvnikidan 84% ga kam) bilan reaksiyaga kirisha oladi. Xuddi shunday boshlang'ich aralashma bromli suvdan o'tkazilganda 66,2 g cho'kma tushishi ma'lum bo'lsa, dastlabki aralashmadagi propanol massasini (g) aniqlang.  
A) 12 B) 48 C) 24 D) 60
80. Tarkibida 1 ta  $sp^3-sp^2$  va 12 ta  $sp^3$  gibrid orbital tutgan benzol gomolog(lar)i nitrolanganda necha turdagi mononitrobirikma hosil bo'ladi? (yon zanjirning nitrolanishi hisobga olinmasin)  
A) 4 B) 3 C) 2 D) 5
81. Qaysi modda fosfat ioni uchun reaktiv hisoblanadi?  
A)  $NaOH$   
B)  $AgNO_3$   
C)  $FeSO_4$   
D)  $Cu(NO_3)_2$
82. Kucherov reaksiyasida etandan nima hosil bo'ladi?  
A) etilenglikol B) etanal C) etanol D) eten
83. O'zaro izomer bo'lgan ikkita aromatik uglevodorod kaliy permanganatning kislotali eritmasi bilan oksidlanganda 1,4 mol  $CO_2$  gazi, 0,2 mol benzoy kislota va 0,4 mol tereftal kislota hosil bo'ldi. Tereftal kislotali hosil qilgan uglevodorod massasini (g) aniqlang.

- A) 38 B) 45 C) 26,8 D) 53,6
84. 5:2 mol nisbatda olingan ishqoriy metal va uning gidrididan iborat 13,75 g aralashma mo'l suvda eritilishi natijasida 19,6 g ishqor hosil bo'ldi. Metallni aniqlang.  
A) K B) Li C) Na D) Rb
85. Quyidagi berilgan birikmalarda bog'ning qutbliligi qanday o'zgaradi?  
 $\text{NH}_3 \rightarrow \text{HF}$ ,  $\text{CH}_4 \rightarrow \text{H}_2\text{O}$   
a) ortadi; b) kamayadi;  
A) 1-a; 2-b; 3-b B) 1-b; 2-a; 3-a C) 1-a; 2-b; 3-a D) 1-b; 2-a; 3-b
86. 0,5 mol miqdorda olingan  $\text{XY}_2$  va  $\text{AY}$  birikmalarda mos ravishda  $13 \cdot N_A$  va  $5 \cdot N_A$  tadan elektron bo'lsa, X ni toping. X va Y elementlar bitta davrda (berilgan tartibda) ketma-ket joylashgan.  
A) F B) C C) N D) O
87. Ammiak sintez qilish jarayonida reaktordagi bosim 20% ga kamaydi. Boshlang'ich aralashmadagi azot bilan vodorod miqdori stexiometrik nisbatda bo'lsa, reaksiyadan keyin hosil bo'lgan gazlar aralashmasining hajmiy tarkibini aniqlang.  
A) 3/16; 9/16; 1/4  
B) 1/9; 2/3; 2/9  
C) 3/10; 3/10; 2/5  
D) 1/4; 1/4; 1/2
88.  $3d^4$  dagi oxirgi elektron uchun kvant sonlari qiymatini (n, l, m, s) aniqlang.  
A) 3; 2; +1; -1/2  
B) 3; 2; 0; +1/2  
C) 3; 1; -1; -1/2  
D) 3; 2; +1; +1/2
89. 0,06 mol  $\text{CuSO}_4 \cdot 3\text{H}_2\text{O}$  va  $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$  aralashmasining to'liq degidratlanishidan 0,2 mol suv hosil bo'ldi. Kristallogidratlarning mol nisbatini toping.  
A) 2:4 B) 4:5 C) 3:1 D) 5:1
90. Glauber tuzining formulasini ko'rsating.  
A)  $\text{Na}_2\text{CO}_3 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$   
B)  $\text{Na}_2\text{SiO}_3 \cdot 9\text{H}_2\text{O}$   
C)  $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$   
D) NaCl
91.  $A_{(g)} + B_{(g)} \leftrightarrow 2C_{(g)}$  sistemada boshlang'ich moddalardan 6 mol/l dan olingan. Ushbu sistemada kimyoviy muvozanat ( $K_m=4$ ) qaror topgandan so'ng moddalarning konsentratsiyalari yig'indisini (mol/l) aniqlang.  
A) 12 B) 6 C) 10 D) 8
92. 75 g 76% li sulfat kislota eritmasiga necha gramm suv qo'shilganda 50% li eritma hosil bo'ladi?  
A) 39 B) 17,5 C) 25 D) 12,5
93. 5 molyalli eritma tayyorlash uchun takibida 140 g KOH saqlagan 4 molyalli eritmaga yetarli miqdorda KOH qo'shildi. Hosil bo'lgan eritmadagi KOH ning massa ulushini (%) hisoblang.  
A) 16,2 B) 21,9 C) 12,9 D) 39,1
94. Nitrat kislolaning 20% li va 60% li eritmaları bo'lib, 20% li eritmadagi kislota massasi 60% li eritmadagi suv massasidan uch marta kam bo'lsa, ushbu eritmalar aralashirilganda hosil bo'ladigan eritma konsentratsiyasini (%) aniqlang.  
A) 38 B) 33 C) 44 D) 51
95. Eritmadagi  $\text{H}^+$  ionlari  $\text{OH}^-$  ionlaridan  $10^{10}$  marta ko'p bo'lsa, eritmaning pOH qiymatini toping.  
A) 10 B) 12 C) 5 D) 4
96. 7,2 g metal kislotadan 6,72 litr (n.sh) vodorod siqib chiqarsa, 9,6 g metal qanday massadagi (g)  $\text{Fe}^{3+}$  ni siqib chiqaradi.  
A) 5,6 B) 28 C) 15 D) 11,2
97. Sxemadagi barcha noma'lum moddalar tarkibida azot borligi ma'lum bo'lsa, A, C va F moddalarni aniqlang.  
$$\text{H}_2 + \text{N}_2 \xrightarrow{\text{t}^0, \text{P}} \text{A} \xrightarrow{\text{O}_2, \text{kat}} \text{B} \xrightarrow{\text{O}_2} \text{C} \xrightarrow{\text{O}_2 + \text{H}_2\text{O}} \text{D} \xrightarrow{\text{A}} \text{E} \xrightarrow{\text{t}^0} \text{F}$$
  
1)  $\text{H}_2 + \text{N}_2$ ; 2)  $\text{NO}_2$ ; 3)  $\text{NO}$ ; 4)  $\text{HNO}_2$ ; 5)  $\text{HNO}_3$ ; 6)  $\text{NH}_4\text{NO}_3$ ; 7)  $\text{N}_2\text{O}$  8)  $\text{N}_2$   
A) 4,6 B) 1,8 C) 1,2,7 D) 5,6
98. 500 g 8% li mis (II) sulfat eritmasi elektroliz qilinganda 5,2017% eritma olindi. Eritmadan necha faraday tok o'tganini aniqlang.  
A) 5,5 B) 1 C) 1,5 D) 0,5
99. 1 mol metall gidroksid qizdirilganda 27 g suv hosil bo'ldi. Hosil bo'lgan metall oksidining molyar massasi parchalangan metall gidroksidning molyar massasidan 52 g/mol ga ko'pligi ma'lum bo'lsa, reaksiyadan hosil bo'lgan metall oksid massasini (g) aniqlang.  
A) 79 B) 43 C) 102 D) 80
100. To'yingan bir atomli spirt tarkibida kislorodning massa ulushi uglerod va vodorodning birgalikdagi massa ulushiga teng bo'lsa, uglerodning massa ulushini aniqlang.  
A) 3/5 B) 12/23 C) 3/8 D) 24/37
101. 0,5 mol lityi va kadmiydan iborat aralashma tarkibidagi lityi ning mol ulushi kadmiyning massa ulushiga teng bo'lsa, kadmiyning miqdorini (mol) hisoblang.  
A) 0,1 B) 0,2 C) 0,3 D) 0,4
102.  $\text{MeSO}_4$  ning 100 g 10% li to'yingan eritmasiga shu tuzdan 6,9 g qo'shildi va qizdirildi. So'ngra eritma boshlang'ich haroratga qadar sovutildi. Natijada 13,9 g  $\text{MeSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$  cho'kmaga tushdi. Kristallogidratdan kristallizatsion suv to'liq chiqarilsa necha gramm  $\text{MeSO}_4$  qoladi?  
A) 15,2 B) 3,6 C) 18 D) 7,6
103.  $x\text{CaCO}_3 = y\text{CaCO}_3 + z\text{CaO} + z\text{CO}_2$  ifodada x, y, z, z koeffitsiyentlarning eng kichik butun qiymatdagi nisbatlari 5:1:4:4 bo'lsa, reaksiyaning mahsulot unumini (%) aniqlang.  
A) 60 B) 80 C) 75 D) 50
104. Kislorod ozonator orqali o'tkazilganda zichlik 10% ga ortdi. Reaksiya unumini (%) aniqlang.  
A) 27 B) 15 C) 10 D) 20
105. Rux metalli ikki xil konsentratsiyali nitrat kislotalarda eritilganda ajralgan NO va  $\text{N}_2\text{O}$  larning hajmlari nisbatni 4:1 bo'lsa, reaksiyaga kirishgan Zn larning mol nisbatni aniqlang.  
A) 3:8 B) 3:4 C) 3:2 D) 1:1
106. Qaysi tuz eritmasida ishqoriy muhitni ta'minlash gidrolizlanish reaksiyasini susaytiradi?  
A)  $\text{MgSO}_4$   
B)  $\text{NaNO}_3$   
C)  $\text{K}_2\text{SO}_3$   
D)  $\text{ZnCl}_2$
107. Alkan molekulyar massasi uning tarkibidagi uglerod atomlari massasidan (m.a.b) 8 m.a.b ga ortiq bo'lsa, alkanni aniqlang.  
A) etan B) butan C) pentan D) propan
108.  $\text{C}_3\text{H}_x$  tarkibli uglevodorod yonganda reaksiyaga kirishuvchi va hosil bo'luvchi moddalarning miqdorlari (mol) teng bo'lsa, x ning qiymati nechaga teng bo'ladi?  
A) 2 B) 4 C) 6 D) 8